

- O'tkir aka, Sizning asarlaringizda inson qismati, uning baxti va fojiasi, fazilati va nuqsonlari tasvirlanadi. Shuningdek, kitoblaringizda jamiyat hayotiga aloqador ma'naviy-axloqiy masalalar ham, zamon va makon tushunchasi ham e'tibordan chetda qolmaydi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, yozuvchi o'z zamonasiga daxldor shaxs bo'lishi kerakmi yoki bir asaringizda yozganingizdek, "qalbiga quloq solgani" ma'qulmi, degan savol tug'iladi.

- Agar to'g'ri tushungan bo'lsam, yozuvchilik ko'ngil ishimi yoki ijtimoiy hodisami, demoqchisiz. Chindan ham keyingi paytlarda "ijod - ko'ngil ishi" degan fikr ko'p aytiladigan bo'ldi. (Oldindan uzr so'rashim kerak. Bu muammo haqida avval ham o'z qarashlarimni aytganman. Binobarin, ayrim gaplar takror bo'lsa, gazetxondan uzr so'rayman). Xullas, shunday fikr ko'p aytilyapti. Ha, chindan ham badiiy ijod - ko'ngil ishi! Mening e'tiqod darajasiga aylangan shiorim bor. Xudo ko'ngliga solmaguncha, yozuvchi qo'lga qalam olmaydi. Iste'dodning birinchi talabi ham shu bo'lsa ehtimol. Ijod shunchaki qog'oz qoralash emas. Aks holda savodi bor har qanday odam adib yoki shoir bo'lib ketaverardi. Chinakam badiiy asar yozilmaydi, katta hayajon, ichki ehtiyoj bilan tug'iladi.

Sho'rolar zamonida badiiy ijodga propagandaning ta'sirchan vositasi sifatida qaraldi. Musavvir va aktyor, bastakor va rejissyor kabi yozuvchi va shoirlar ham partiyaning dastyori, "yugurdagi" bo'lishi, yagona mafkuraning karnayini chalishi talab qilindi. Kim karnayni qanchalik kuchanib chalsa, "xalqlar otasi"ni qanchalik "kimoshdi" qilib madh etsa, partiya g'oyalarini qanchalik "yorqin" aks ettirsa, u shunchalik qadrlandi. Shu tariqa bir-biridan tumtaroq maddohliklar, havoyiliklar avj oldi. Biroq o'quvchi ularni qabul qilmadi. Negaki bunday "asarlar" puch edi. Ularda jon yo'q edi. "Jon" degani esa ko'ngil mulki, qalbi buyurganini yozish demakdir.

Shu bilan birga bu iborani tor ma'noda, so'zma-so'z tushunish ham to'g'ri bo'lmaydi. Agar ijod shunchaki "ko'ngil ishi" bo'lsa, shoir yozgan she'rini xotiniga o'qib berishi, adib romanini to'rtta ulfatiga tarqatishi kifoya qilardi. Axir u ko'nglidagini qog'ozga tushirdi, xolos. Shunday ekan "ko'ngil ishi"ni minglab, yuz minglab nusxada kitob qilib chiqarish shartmi? Bu savol tagida jiddiy masala yotibdi. Ha, ijod shubhasiz, ko'ngil ishi! Ayni paytda bu nihoyatda jiddiy ijtimoiy hodisa ham! Negaki ijodkorning "ko'ngil ishi" kitobga aylanganidan keyin uning shaxsiy boyligi emas, xalq mulkiga aylanadi. Endi u kitobxon ma'naviyatiga ta'sir qiluvchi, o'quvchini inson qismati haqida o'ylashga, hayot to'g'risida mushohada qilishga majbur etuvchi sehrli kuch sanaladi. Bu - badiiy ijodning ma'naviyatga aloqador jihati. Masalaning moddiy jihatida ham bosh qotirish kerak bo'lgan holatlar yo'q emas. Har qanday hunar egasi qatori qalamkash ham o'z iste'dodi, og'ir yaratuvchilik mehnatiga yarasha moddiy rag'batlanishga haqli. Ijodga shunchaki "ko'ngil ishi" deb qarash tagida shu holatni nazardan qochirish ko'zga tashlanadi. Qo'polroq qilib aytadigan bo'lsak, shoir kitobi chiqqaniga rahmat deyaversin qabilida o'ylaydiganlar bor.

Bir davrada ziyoli ukaxonimiz "dutorning qorni teshik bo'lgani uchun ovozi yaxshi jaranglaydi, shunga o'xshab shoirlar ham qancha yupun yashasa, shuncha yaxshi ijod qiladi", degandi. Albatta, bu - shunchaki hazilomuz taqqos sifatida aytilgan deydik. Bunday "hazil"ni "asoslash"ga urinuvchilar bo'lishi ham mumkin. Ularning "asosi" quyidagicha. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy shuncha daho asarlar yaratib qo'yib, bir chaqa "gonorar" olganmi? Shoh Boburchi? Mashrab, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Maxmur va boshqa o'nlab qalam ahli she'r yozib shuning orqasidan kun ko'rmagan-ku. Ularning deyarli hammasi yupungina yashagan-ku!

Keling, hazrat Navoiy bilan Bobur shohga til tegizmay qo'ya qolaylik. Navoiy hazratlari butun bir saltanatning bosh vaziri bo'lganlar. Tarixchilarning yozishicha, lozim bo'lsa davlat xazinasiga ham yordam berib turganlar. Bobur ham kambag'al bo'lgan emas. Binobarin, "qalam haqi" degan narsaga ehtiyoj sezmagani. Yuqorida nomlari sanalgan talay shoirlar chindan ham ijod qilish hisobiga bola-chaqa boqmagan. Biri hattot, biri sarboz, biri sartarosh va hokazo bo'lgan. Biroq ular yashagan muhit bilan bugungi kunning solishtirish mumkinmi? Muqimiy yoki Furqatning, Zavqiy yoki Avaz O'tarning nechta kitobi necha ming nusxada nashr etilib, necha yuz ming (yoki necha million) so'mga sotilgan? Ularning bironta kitobi chop etilganmi o'zi?

So'nggi yuz yil davomida kitob nashr etish butun bir industriyaga aylandi. Yaxshi yozuvchi va shoirlarning kitoblari (yaxshi kitoblari) o'n ming, ellik ming, yuz ming nusxada nashr etiladigan bo'ldi. Asarni bosmaga tayyorlagan nashriyot ham, chop etgan matbaa korxonasi ham, mahsulot ustiga o'z "ustama" narxini qo'yib sotadigan kitob savdosi xodimlari ham shu jarayonda ishtirok etgani uchun haq oladi va bu tabiiy hol. Shunday ekan, nega endi asarni yaratgan, yo'q joydan bor qilgan ijodkorning manfaati birinchi o'ringa qo'yilmasligi kerak? Mashhur estrada xonandasi, mashhur rassom, mashhur "qiziqchi" moddiy jihatdan qanchalik to'kin yashasa, mashhur yozuvchi va shoir ham shunchalik badastur yashashga haqli. "Ijod - ko'ngil ishi, asarini bo'sh vaqtda yozaversin" deyish adolatdan emas. Agar haqiqiy qalamkash haqiqiy san'at asarini yaratishdan ko'ngli sovib ketsa, uning o'rnini saviyasi past kitoblar to'ldira boshlashi tayin. Albatta, "samizdat" degan tushuncha ham bor. Muallif o'z mablag'iga kitob chop etishi, o'z xotiralarini nashr ettirishi mumkin. Biroq qandaydir "boyvachcha" azbaroyi "nom qozonish" uchun "roman" yoki "shig'ir kitob" chiqargisi kelib qolsa, hamma xarajatlarni to'lab, o'sha "ijodi"ni nashr ettirib tarqatsa (bu ham "ko'ngil ishi"da) oxiri nima bo'ladi? Oqibatda shu bo'ladi, adabiyotning insonparvarlik missiyasi tamom bo'ladi! Ma'naviyat mayib-majruhga aylanadi! Minglab kitobxonlar haqiqiy ijod xazinasidan benasib qoladi!..

Ko'rinib turibdiki, "moddiy" tushuncha bilan "ma'naviy" tushuncha bir-biriga bog'lanib ketayapti.

Haqiqiy ijodkor zimmasida yana bir zalvorli yuk bor. U, o'zi bilibmi, goho bilmaymi, xalqning nazariga tushishdek ijtimoiy vazifani yelkasiga oladi. Xalq haqiqiy yozuvchi yoki shoir deganda Vatan qismatini o'ylaydigan, odamlar dilidagini ifodalaydigan katta shaxsni tushunadi, unga ergashadi. Bu - butun jahonda bor narsa. Qaysi yurtga bormang, eng avvalo, o'sha xalqning klassik shoiri, adib yoki dramaturgini ziyorat qilishga taklif etadilar. Uning haykalini, muzeyini tomosha qildiradilar. Har bir xalq o'zidan chiqqan ulug' ijodkor bilan faxrlanadi. Negaki, ular bir tomondan o'z xalqini jahonga tanitgan bo'lsa, ikkinchidan umumbashariy xazinaga ulush qo'shgan. Shu ma'noda katta ijodkor katta ijtimoiy shaxs ham sanaladi. Xulosa shuki, adabiyot - ko'ngil ishi. Biroq bu ijod ahlining jamiyat hayotida tutgan jiddiy nufuziga aslo monelik qilmaydi, aksincha, bu tushunchalar bir-birini to'ldiradi...

- Chinakam yozuvchi badiiy asarda qahramonlarini o'ziga bo'ysundira oladi, degan fikrlar ham mavjud...

- "Qahramon" degan so'zning o'ziga bir qadar shubha bilan qarayman. Menga qolsa "asar qahramoni" emas, "asardagi inson" degan ibora ishlatilsa aniqroq bo'lar edi. Sababi, "qahramon" degani qandaydir "boshqalardan ajralib turadigan", yaxshimi-yomonmi biron "hunar" ko'rsatadigan shaxs bo'lishi kerakdek tuyuladi. Mayli, hamonki, adabiyotshunoslikda "qahramon" degan ibora qabul qilingan ekan, shuni qo'llay qolaylik. Sho'ro zamonida hali aytganimizdek, yozuvchiga partiyaning dastyori, adabiyotga esa kommunistik mafkuraning quroli deb qarab kelindi. Shunga yarasha qahramonlar ham ikki toifaga bo'lingan edi: ijobiy va salbiy. (Bu toifalar sinfiy pozitsiyani aks ettirsa yana yaxshi). Shu tariqa badiiy asarda faqat oq va qora ranglar, faqat yaxshi va yomon odamlar harakat qilishi udum bo'ldi. Kommunist hech qachon xato qilmaydi. Ichmaydi, chekmaydi, partiya topshirig'i bilan olis safarga borsayu, biron begona ayolga ko'zi tushib qolsa, qochib ketadi. Xullas, odam emas, "farishta".

Mahalliy xalqning mingta donishmandi ming yil o'ylab hal qilolmagan muammoni markaz tomondan kelgan "og'a-amaki" bir soatda yechib beradi... Bular - ijobiy qahramon. Salbiy qahramonning qolipi ham tayyor. Ota-bobosi quloq yoki bosmachi bo'lgan. O'zi tekinxo'r, xotinboz... Bu - ijod emas, masxarabozlik edi.

Shunga qaramay o'sha zamonda ham har qanday qatag'onlari, "sosrealizm" qoliplaridan qo'rqmasdan go'zal va haqqoniy asarlar yozib, xalq mulkiga aylantirgan ijodkorlar oz bo'lmadi. O'tgan asrda yaratilgan o'nlab roman va dostonlarda, she'rlar va dramatik asarlarda insonning murakkab va chigal qismati aks ettirildi. Bu sohada o'zbek adabiyotining boshqa biron adabiyotdan qolishadigan joyi yo'q. Shu boisdan murakkab qahramonlar faqat chet el adabiyotida yaratildi, desak, noto'g'ri bo'ladi. Ijodkor uchun keng imkoniyatlar yaratilgan bugungi kunda bizning adabiyotimizda bunday qahramonlar safi yanada kengayadi, deb o'ylayman.

Aslida "murakkab qahramon" degani asardagi "ijobiy" odamga ataylab illat yopishtirish yoki "salbiy" qahramonga fazilat yelimlash degani emas. Kitobdagi odam chin ma'noda tirik insonga aylansa, fazilat va nuqsonlari bilan o'quvchini larzaga solsa, kitobxon uni sevib qolsa yoki yomon ko'rsa, xullas, uning qismati sizni loqayd qoldirmay, hayot haqida o'ylashga majbur qilsa, demak bunday "qahramon" ham, kitob ham uzoq yashashga haqli. Bunda yozuvchining g'oyalari badiiy tafakkur cho'qqisiga chiqqan bo'ladi.

- O'tkir aka, bu borada o'zingizning asarlaringizdan bir misol keltirish mumkin. "Tushda kechgan umrlar" romanida Komissar obrazi bor. Bu odamni mustabid tuzumning timsoli desa bo'ladi. Uning shiori - hammani qo'rquv iskanjasida ushlab turish, mavh etish, yo'q qilish... Hatto bir o'rinda u "men printsip uchun onasidan voz kechgan odamman", deydi. Bir qarashda siz bu qahramon tasvirida qora bo'yoqni quyulqashtirib yuborgandeksiz. Ammo asarni sinchiklab o'qigan kitobxon mana shu palid bir kimsaning ham katta fojialari borligini payqaydi. Uning chekist otasini "sinfiy dushmanlar" otib ketgan. Buning xunini butun bir qishloq "to'lashga" majbur bo'ladi. Sho'ro siyosati bo'lajak "komissar"ga "atrofingdagilar hammasi dushman" deb o'rgatadi. Shuning uchun ham u o'z hamqishlog'ini "xoin" deb otib tashlaganda zarracha iztirob chekmaydi. Uning nazarida hamma "dushman"! Shu kimsa kasriga farishtadek xotini hayotdan erta ko'z yumadi. Bir o'g'li chet elga qochib ketadi, biri undan yuz o'giradi. Ikinchi xotini ko'z o'ngida unga xiyonat qiladi. Uni hech kim odam o'rinda ko'rmaydi, el-yurtga qo'shilolmaydi, birov bilan dardlasholmaydi, yakkamoxov, kechalari uyquda alahsirab chiqadi...

Xullas, Umarali Normatov ta'kidlaganidek, Komissarning bu dunyoda tirik yurganining o'zi - unga Xudo tomonidan berilgan jazo... Komissar faqat manfur shaxs sifatidagina emas, cheksiz fojialari bilan ham esda qoladi va o'quvchi ko'z o'ngida tirik odamga aylanadi...

O'tkir aka, adib, shoir, umuman qalam ahlining ommaviy axborot vositalari bilan aloqasi, ularning bir-biriga ta'siri haqidagi mulohazalaringiz bilan ham o'rtoqlashsangiz.

- El ardog'iga sazovor bo'lgan shoiru adiblar, dramaturgu allomalarning deyarli hammasi ommaviy axborot vositalari maktabini o'tagan. Abdulla Qodiriydan tortib Xayriddin Sultonovgacha, G'afur G'ulomdan tortib Sirojiddin Saidovgacha barchasi gazeta yoki jurnalda, nashriyot yoki teleradioda ishlagan. Ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, gazeta, jurnal tahririyatlari, nashriyotlar qalam ahli uchun hayot va tajriba maktabi bo'lgan va bundan keyin ham shunday bo'ladi, deb o'ylayman...

Xalq ehtiromidagi ijodkorlar ommaviy axborot vositalari bilan yaqin aloqada bo'lganlar. Ularning eng sara she'r va dostonlari, hikoya va romanlari gazeta va jurnallarda bosilgan. Bundan tashqari, o'zini hurmat qilgan ijodkor jamiyatda va dunyoda ro'y berayotgan voqealar haqida ommaviy axborot vositalarida muntazam chiqib turishni o'z burchi sanagan. G'.G'ulom va Oybek, A.Qahhor va A.Muxtor kabi ustozlarning jonkuyarlik bilan yozgan publitsistik chiqishlari jamoatchilik tomonidan qizg'in kutib olingan.

Bu yaxshi an'ana hozir ham davom etyapti. Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov, Salohiddin Mamajonov, Ibrohim G'afurov, Oydin Hojjeva, To'ra Sulaymon, Qutlibeka Rahimboeva, Xurshid Do'stmuhamedov, Qo'chqor Norqobilov kabi turli avlod vakillari bo'lmish adib shoir va olimlarning aqalli keyingi bir yil ichida gazeta va jurnallarda, televidenie va radioda qilgan chiqishlarini sanayman desangiz ancha vaqt kerak bo'ladi. Bular she'r, hikoya va maqolalargina emas, bugungi kunning kechiktirib bo'lmas masalalari haqida kuyib-yonib ko'tarilgan muammolardir! O'zbekning or-nomus, vijdon, uyat, burch, andisha, insof, kechirimlilik degan muqaddas tushunchalari qadrsizlanib qolmayaptimi? Odamlar nima sababdan bu qadar yuzsiz, ibosiz, ochko'z bo'lib ketyapti? Bular ijod ahlining iztirob, dil faryodi bilan ko'targan muammolari... Yaqinda mashhur rus shoiri Yevgeniy Yevtushenkonning matbuotda e'lon qilingan mulohazalarida insonlar orasida mehr-oqibat kamayib ketgani teran dard bilan aytilganini o'qib, bunday muammo hamma yerda ham borligiga yana bir karra ishonch hosil qildim...

O'zim guvoh bo'lgan bir voqeani aytishim mumkin. Amerikalik jurnalist bilan suhbatimizda mehmon medan mahalla degani nima uchun o'zbek hayotida bunchalik katta o'rin tutishi, umuman, o'zbek mentaliteti nimaligini tushuntirib berishni so'rganida, bu masalada bir-birimizni tushunishimiz hiyla og'irligini aytib, bir misol keltirgan edim. Masalan, Amerikada voyaga yetib-etmagan bola ellik dollar pul talashib otasini sudga bersayu, sudda yutib chiqib, otasini besh ming dollar to'lashga majbur qilsa, bu demokratiya tantanasi hisoblanadi. Mabodo shunday holat O'zbekistonda ro'y bersa, bunaqa bola "oqqadar" hisoblanadi. Hamma undan yuz o'giradi. Negaki, o'zbekning farzandi o'z padarini sudga yetaklab borgandan ko'ra o'lgani ma'qul, har nima bo'lgani ma'qul.

Yaqinda Toshkentdagi oliy o'quv yurtlaridan birida bo'lib o'tgan uchrashuvda shuni eslagan edim, bir talaba "agar pulni o'sha bolaning o'zi topgan bo'lsa otasini sudga berib, to'g'ri qipti", dedi! Rostini aytsam, bu gap menga juda og'ir botdi. Nahotki, yoshlarimiz orasida shu qadar shafqatsiz tafakkur qiladiganlar bor bo'lsa? Nahotki, mol-dunyoni o'z padaridan yuqoriroq baholash mumkin bo'lsa?! Mayli, bugungi muayyan taqchilliklar o'tar-ketar. Boy-badavlat ham bo'larmiz. Ammo avlod-ajdodlarimiz ming yillar davomida avaylab kelgan qadriyatlarini tiklash, singan ko'ngilni yamash, yo'qolgan mehrni topish oson bo'larmikan?

Avvallari ommaviy axborot vositalarida jamiyat qismatiga aloqador chiqish bo'lsa, keng muhokama qilinar, kerak bo'lsa o'sha maqola yuzasidan tadbirlar belgilanar, qarorlar chiqarilar edi. Hozir ham ma'naviyat masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Ma'naviyat va ma'rifat markazlari gazeta yoki teleradiodagi eng jiddiy chiqishlarga e'tibor qaratsa, aqalli o'sha maqolani maktab va kollejlarda, litsey va institutlarda, mahalla-ko'ya o'qish uchun o'n besh daqiqa vaqt ajratishga da'vat qilsa bo'lmaydimi?..

Xullas, ijod ahli matbuot, teleradioda o'z burchini bajaryapti. Hamma gap jonkuyarlik bilan aytilgan o'sha dardlar yuzasidan amaliy choralar ko'rishga kelib taqaladi...

- Keyingi paytda kitob o'qishga ixlos susayib ketyapti...

- This is not registered version of TotalDocConverter

Bu haqda nima aytish kerak? Kitobxonlar kamayib boryapti. Buning sabablari ko'p. Hozir axborot vositalarining soni ham, ko'rinishi ham keskin ko'paydi. Teleradio, kompyuterlar, seriallar, odamni o'ylashdan ko'ra o'ylamaslikka undaydigan oldi-qochdi nashrlar, diskotekalar... Bular yoshlarning mazmunli "vaqt o'tkazishi"ga xizmat qilayapti. Jiddiy adabiyot esa "vaqt o'tkazish" emas kishini o'ylash, iztirob chekish, xulosa chiqarishga majbur qiladi. Ko'ngilochar narsalar tez va oson hazm bo'ladi. Ammo oson hazm bo'ladigan narsaning hammasi ham foydali bo'lavermaydi. Fikrni qashshoq, tanbal qilib qo'yadi... Bu masalaning bir tomoni.

Ikkinchi tarafdin qaralsa, yana o'sha "bozor iqtisodi"ning ta'sirini ko'ramiz. Qog'oz, matbaa xarajatlari qimmatlashib ketgani bois kitoblar narxi ham oshib ketdi. (Shundan kelib chiqib, tiraj keskin kamaydi). Hozir o'rtacha hajmdagi kitob bahosi 3 ming so'm atrofida. Albatta, bunday narxga har kuni ham kitob sotib olish qiyin. Shu bilan birga kitob savdosida ham hal etilishi zarur bo'lgan muammolar bor. (Bu haqda maxsus qaror qabul qilingani bejiz emas). Nashriyotdagilar "kitob yaxshi sotilmayapti", deb noliydi. Markazdan bir qadam chetga chiqsangiz, maktab va kollej domlari, kutubxonachilar, oddiy o'quvchilar "kitobingiz nega chiqmayapti?" deb so'raydi.

Misol tariqasida bir xatdan parcha ko'chirib olishingiz mumkin. Bu xat Samarqand viloyat Pastdarg'om tumani Q.To'raev nomidagi shirkat xo'jaligi Baxshiboy mahallasida istiqomat qiluvchi Xoliq Amirovdan kelgan. "Men Sizning asarlaringizni katta qiziqish bilan o'qiyman. Ular kitob do'koniga keladi-yu, darhol g'oyib bo'ladi. Yaqinda tuman markazidagi kitob magaziniga kirsam, ikki jildli asarlaringiz bor ekan. Sevinib ketdim. Narxini so'rasam, olti ming so'm ekan. Pulim yetmay, bittasini oldim. Ikki kundan keyin kelib, ikkinchisini so'rasam, narxi deyarli besh hissa oshib ketibdi. "Nega bunday?" desam, sotuvchi "bu kitob yolg'iz sotilmaydi", deb yana beshta kitob qo'shib o'rab qo'yilgan boylamni ko'rsatdi. Qiziq, nega endi men o'zim xohlagan kitobga "dum" qilib o'zim xohlamagan kitoblarni ham sotib olishim kerak... Xullas, kitobni ololmadim. Yana bir gap. Televizorda "Dentomed"mi, balomi degan tish pastasini shu qadar ko'p reklama qildiki, bir kuni saksandan oshgan onamiz menga yalinib qoldilar. "Jon bolam, o'sha aytayotgan "detamit"dan menga bir juftgina keltirib bersang, odamning tishi "karis" bo'lmasmish" ... Mazza qilib kuldik. Onamizning tishi plastmassa, tanglay tish bo'lsa, ularga pastaning nima keragi bor? Men boshqa narsani aytmoqchiman. Nima uchun har xil pasta, lab bo'yoq va yana allaqanday iprisqi narsalarni shu qadar keng reklama qiladilar-u, yaxshi asarlar targ'ib qilinmaydi?"

Kitobxon Xoliq Amirovning bu gapiga qanday qo'shimcha qilish mumkin? Oramizda shunday kitobsevarlar borligiga shukr! O'ylaymanki, hamma baravariga kitobdan sovidi, desak, insofdan bo'lmas. Hamkasblarim kitobxonlar bilan uchrashuvlarda bunga o'zlari ham guvoh bo'lyaptilar. Biroq kitobxonlikni o'z xoliga tashlab qo'yish ham mumkin emas. Kitob targ'ibotini, savdosini tubdan yaxshilash kerak ko'rinadi. Qolaversa, biz - ijodkorlarning o'zimizda ham ayb bor. Kitobxonlar bilan tez-tez uchrashishga goho vaqt topolmaymiz. Goho... erinamiz... Nima bo'lganda ham o'quvchilarning badiiy asarga, so'z sehriga bo'lgan mehrini saqlab qolish shart. Bu - ma'naviyat bilan, keskinroq qilib aytadigan bo'lsak, millat kelajagi bilan bog'liq narsa.

- O'tkir aka, sir bo'lmasa, yozayotgan eng yangi asaringiz haqida...

- Keling, ukajon, shunisi "sir" bo'lib qolaqolsin. Xudo xohlarsa, o'sha asar tug'ilsa Sizga o'zim xabar qilaman.

Suhbatdosh: Usmon Murodov